



TA'LIM TIZIMIDA ALOHIDA EHTIYOJGA EGA BO'LGAN BOLALARNI INKLUYUZIV TA'LIMGA YO'NALTIRISH

Akbarova Shohsanam Raxmat qizi

Mirzaobod tumani 15-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizda inkyuziv ta'lism tizimining takomillashuvi va bu ta'lism tizimi maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, inkyuziv ta'lism tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi, muammolar, yechimlar haqida so'z boradi. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lism tizimida o'qitish masalalariga e'tibor beriladi.*

Kalit so'zlar: Integratsiya, ta'lism, inkyuziv, psixolo-pedagogik, korreksion ish, ijtimoiy moslashtirish, rivojlanish, takomillashuv, harakat.

Mamlakatimizda ta'lism sifatini oshirish uchun avvalo, bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lism taqdim etilishi kerak. O'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan bo'lishi talab etiladi.

L.S.Vigotskiy fikricha nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning integratsiyasini ta'minlash deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta'lism tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ya'ni L.S.Vigotskiy umumiyl va maxsus ta'lismni uyg'unlashtiradigan ta'lism tizimini tashkil etishni maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lism tizimida o'qitishni e'tirof etgan.

"Inkyuziv ta'lism" bu (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion-uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi). Nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko'ra imkoniyati chelangan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lism jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lism tizimidir.

Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lism muassalari tarkibiga qarab olinishi jahon miqyosida „inkyuziv“ yoki „integratsion“ ta'lism atamalari bilan ataladi.

Inkyuziv ta'lism to'g'ri tanlovdir, sababi bolalar uyda yoki maxsus muassasalarda ta'lism olgandan ko'ra oddiy maktabda o'z tengdoshlari bilan ta'lism olganda ularning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi oshadi, ta'lism samaradorligi ham yuqori bo'ladi. Uyda



ta'lism olgan bolalar jamiyatdan uzulib qoladi, ko'pchilikka qo'shilolmay odamovi bo'lib qolishadi. Maxsus muassasalarda ta'lism olgan bolalarning ko'pchiligi esa bilim darajasi past bo'lib qolishi, yoki o'qishga qiziqishi pasayishi mumkin, sababi u yerda undan ham rivojlanishda orqada qolgan bolalar bo'lishi mumkin, baribir muhit katta ta'sir qiladi. "Qovun qovundan rang oladi deganlaridek" sog'lom bolalar bilan o'qigan bola ulardan namuna oladi, hamda ular bilan raqobatlashishga harakat qiladi. Qaysidir jihatdan nuqsoni bor bolalar, boshqa tarafdan yaxshi rivojlanishi mumkin. Misol uchun tayanch harakatlanish a'zosida nuqsoni bor bolalar, aytaylik, yurishda, yugurishda va shu kabi jismoniy harakatlarda orqada qolishi mumkin, ammo ularning ko'pchiligi ijodiy faoliyatda iste'dodli bo'ladilar. Ularning ota-onalari qanchalik ularga ko'p e'tibor bersa ularning motivatsiyasi oshib, muvaffaqiyatli inson bo'lib ulg'ayadilar. Inklyuziv ta'limda tarbiyachi, pedagoglar, sog'lom bolalar va ota-onalar o'zaro hamjihatlikda faoliyat olib borib, nuqsonli bolalarga yordam berishlari kerak.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sind o'qituvchisi defektologiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Inklyuziv ta'lism joriy qilingan maktablarga (muassasalarda) ta'lism jarayonini tashkil etish tamoyillari:

*Maxsus ta'lism tamoyillari

*Korreksion yo'naltirilganligi

*Nuqsonlarni aniqlash, ta'lism berishda kompleks(klinik-genetik, neyrofiziologik, psixolo-pedagogik) yondoshish

*Umumiyl o'rta ma'limot berish, kasbga yo'naltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish

*Deffernsial tabaqlashtirish va alohida yondoshish

*Ta'limming usluksizligini ta'minlash

Inklyuziv ta'liming muammolari.

✓ Ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limgni joriy etish bo'yicha davlat normativ xujjalarda qayd qilinmaganligi;

✓ Nogiron bolalarga nisbattan salbiy munosabat;

✓ Imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko'rinaslik muammosi;

✓ Imkoniyati cheklangan bolalarning maktabda ko'rinaslik muammosi;

✓ Moddiy mablag' muammolari;

✓ Ta'limg muassasalarini moslashtirish;

✓ Sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi;

✓ Kambag'allik;

✓ Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish;

✓ Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi;

✓ Favqulodda vaziyatlar, mojarolar, qochoqlar;

✓ Kadrlar masalasidagi muammolar.



Inklyuziv ta'lismi tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi.

Ammo bu ta'lismi tizimining naflı jixati juda ko'p ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- Inklyuziv ta'lismi qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- Inklyuziv ta'lismi barcha uchun ta'lismi sifatini yaxshilaydi;
- Kamsitishlarni oldini oladi;
- Inklyuziv ta'lismi yanada inklyuzivlikka olib keladi.

Inklyuziv ta'linda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzagakeladi;
 - dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
 - o'qishga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishlari ortadi;
 - o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
 - ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
 - yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'lismi sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- ❖ O'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;
- ❖ Tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;
- ❖ Ularni qo'llab- quvvatlash, yordam berishga intilish -insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
- ❖ Yordamga muhtoj insonlarga e'tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar.

Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lismi tashkilotlari kun sayin ko'payib va takomillashib bormoqda.

Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lismi masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'linda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etadi. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'lumi va oliy ta'lumi ham amalga oshirilishi talab etiadi. Chunki inklyuziv ta'lismi tizimining vazifalardan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlaini ta'minlashdan iboratdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, inklyuziv ta'lismi vazifasi bolalarning qobiliyatlarini va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lismi taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lismi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lismi



olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa mакtabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijali kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'laligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020
3. Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011
4. Muzaffarova, X. (2021). Ақли заиф болаларни ташхислаш ва уни амалга оширишга қўйиладиган талаблар. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
5. Ashirova O'. A "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha innovatsion yondashuv usullari". "Pedagoglar malakasini oshirish tizimiga innovatsion yondashuv: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy – amaliy onlayn konferensiysi. 2022 yil 6- 7 aprel.2022 yil
6. Л.С.Выготский. Дефект и сверхкомпенсация.// "Проблема дефектологии". М.; 1996
7. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013
8. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
9. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.
10. D.S.Qaxarova " Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil